



## TARIX FANINI O'QITISHDA FAOL INOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH.

**RAHIMJONOVA O'G'ILOY MAXAMMADZIKRIYA QIZI**

*Bag'dod tumani 1 -son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**SODIQOVA SAYYORA SALOHIDDINOVNA**

*Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**ABDULLAYEVA GULHUMOR ILHOMJON QIZI**

*Bag'dod tumani 1-son kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** + *Tarix bu- kelajakka ko'zgudir. O'z tarixini bilmagan inson – manqurtdir. Tarix o'qitishning tashkil etilishi ,metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga hizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Tarix, inovatsiya , aqliy hujum, klaster, “men kimman”, ”mening oilam”, o'qitish , metod, interfol.*

+ Tarix bu- kelajakka ko'zgudir. Inson odimlab kelajakka intilib yashar ekan, orqaga ya'ni o'tmishiga bir nazar solishi kerak:mendan avlodlarga nima qoldi deb. Biz tarix fanini nima uchun o'rganamiz, chunki ota- bobolarimiz tarixini o'rganib, ularni qilgan ixtirolari, yozib qoldirgan ma'naviy boyliklari, qahramonliklaridan faxrlanish tuyg'usini o'zimizda shakllantiramiz, qilgan hatolarini takror qilmaslikka harakat qilamiz. Buyuklarni bir gapi bor, o'z tarixini bilmagan inson – manqurtdir. Albatta birinchi o'rinda o'zimizni tariximizni mukammal bilishimiz kerak. Nafaqat bizning yurtimizda , balki barcha davlatlarda o'z tarixini ta'lim muassasalarida fan sifatida o'rgatadi. Hurmatli prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev ” Bir haqiqatni hech unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak , har qanday marralarni egallashga , boshqacha aytganda,



tariximizni yangi sahifalarini yaratishga qodir xalqmiz"[1] deb takidlagan edilar. Bundan to'g'ri hulosa chiqarib, muhtaram prizdentimizni ishonchlarini biz yoshlar oqlashimiz kerak.

Tarix fanini o'qitishda, ularni o'quvchilarga yetkazib berishda, darsga qiziqтира olishda bir qator interfaol metodlardan foydalanishimiz mumkin. Bunda albatta o'quvchilarni yosh tempi ham inobatga olinishi zarur. Masalan, bazida quyi sinflarda qo'llagan metodingizni yuqori sinflarda qo'llasangiz, o'zingiz ko'zliga maqsadga erisha olmaysiz.

O'qitish metodlaridan gohida o'quvchilarning bilish darajasi, darsdagi faoliyatlariga qarab klassifikatsiya qilish tafsiya qilinadi. Metodist A.I.Strajev "Tarix o'qitishning tashkil etilishi ,metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga hizmat qiladi"- deydi. U quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi.

- tarixiy faktlarni o'rganish metodlari;
- xronologiyani o'rganish metodlari;
- mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari;
- asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- sabab-natija aloqalarini o'rganish metodlari;
- tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.[2]

Tarixni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish , tarix o'qituvchisining pedogogik ongini kengaytirish, kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, ularda tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedogogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan pedogogik bilim , ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.



Biz yangiliklar ahborotlar asrida yashayapmiz. Avvalo dars boshlashdan oldin sonidan kelib chiqib , ikki yoki uch guruhga ajratiladi. Guruhlar tarix fanidan kelib chiqib nomlanadi. Masalan:”Manguberdi,” “Mirzo Ulug’bek” kabi. “ Kun yangiliklari”ni o’tkazish orqali yurtimizda bo’layotgan voqea - hodisalar haqida ahborot tinglanadi. Tarix fanida o’tilgan mavzular asosida “klaster” [g’uncha ] metodi pedogogk, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo’lib, u o’quvchilarga ixtiyoriy , muammolar xususida erkin, ochiq o’ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Maskur metod turli xil g’oyalar o’rasidagi aloqalar to’g’risida fikrlash imkoniyaini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob’ektga yo’naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog’liq ravishda amalga oshadi.[3] Biz metod tanlashda , tanlagan metodimiz o’tayotgan mavzumizga mos tushishini inobatga olishimiz kerak. Chorak oxirida, yakuniy, umumlashtiruvchi darslarimizda “Mening oilam” metodidan foydalansak maqsadga muofiq bo’ladi. Bu metod orqali o’quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, va jamoada ishlash ko’nikmalari rivojlanadi. Doskaga ko’plab mavzuga oid so’zlar yoziladi. Ular qaysi davlat yoki sohaga oid umumiy jihatlar bo’lsa, tanlab olinib, alohida ajratilgan Oilaga- uy ichiga yoziladi. Bubilana o’quvchilar, qadirdon makon-vatan, maktab, oilasini ko’z oldiga keltiradi. Hayolan oilasiga oid so’zlar bilan metodni tushintirsa, o’zlashtirish osonroq bo’ladi. Masalan: bobo, buvi, ota, ona, aka, uka, podsho, vazir , hokin, soqchi, soliqsgi, askar va hokazo.

Aqliy xujum strategiyasi -universal uslub bo’lib, uning vazifasi yangi g’oyalarni yaratishdir. Aqliy xujum muammoni hal qilayotgan kishilarning ko’proq aql bovar qilmaydigan va xatto fantastik g’oyalarni yaratishga undaydi. G’oya qancha ko’p bo’lsa, ularning hech bo’lmaganda bittasi ayni muddao bo’lishi mumkin. Bu strategiyani ko’llashda o’qituvchi yozuv taxtasida savolni yozadi va o’quvchilardan berilgan fikrlarini (javoblari) yozib boradi. Sinf xonada aytilgan barcha g’oyalarni yozuv taxtasida yozish paytida o’qituvchi g’oyalarga



izohbermaydi, fikrlar savolga bog`liq holda aytiladi. Asosiy qoidalardan biri, har qanday g`oyani aytish mumkin, fikr hech qanday cheklovlarsiz iloji boricha qattiqroq aytilishi lozim.

Aqliy xujumni ma`ruzalarda - yakka tartibda yoki juftlikda, amaliymashg`ulotlarda esa 4-7 kishidan iborat kichik guruhlarda ham o`tkazish mumkin. Ushbu strategiya mashg`ulotlarda o`quvchilar faolligini oshirishga, charchoqni yo`qotishga, g`oyani izlashga sharoit yaratadi[4] . Bu metoddan biz darsga ma`lum bir sababga ko`ra,kechikib kelgan o`quvchiga aqliy hujim qilib foydalansak ham bo`ladi.

Tarix faning ilm-fan va madaniyat mavzularini kengroq yoritishda “Men kimman” metodini qo`llash dars samaradorligini oshiradi. O`quvchi unda tezroq fikrlashga, tezroq javob aytishga harakat qiladi. Jumladan, buyuk allomalarimizning nomlaridan foydalangan holda metodni qo`llaymiz . Masalan: Bir o`quvchi doskaga chiqadi va unga toj kiydiriladi , tojda biror buyuk alloma yoki tarixiy shaxsning rasmi tushirilgan bo`ladi. O`quvchilar doskadagi o`quvchiga savol beradi , u o`quvchi o`zining kimligini topadi.

Buyuk ajdodlarning hayot va ijod yo`li ajdodlar uchun hamisha namuna maktabi bo`lib kelgan. Biz ularning ibratli turmush tarzidan chin insonlik sabog`ini o`qib bu dunyodan odam bolasi o`z oldiga muayyan maqsad qo`yib shu yo`lda izlanib, intilib yashashi lozimligini o`rgansak bebaho asarlarni mutolaa qilib qalbimizga quvvat olamiz. Shunday qilib, o`zaro hamkorlik pedagogikasi o`qituvchi va o`quvchi orasida hamfikrlik, ishonch, o`zaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa o`z navbatida yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyatlarni anglash va e`tirof etishni kafolatlaydi

Mashg`ulotlarni guruhlarga ajratib va individul o`tish uchun o`quvchilarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarining o`zaro bog`liqligini ta`minlash, olgan bilim, ko`nikma va malakalarini amalda qo`llash, qo`l mehnati, amaliy faoliyat



jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni ko'zda tutish muhimdir. Shuningdek, o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishi, kerakli materiallardan foydalana olishi uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy- ommabop jurnallar, gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishlari uchun boy fondga ega bo'lgan kutubxona, uning ishini yengillashtirish uchun sinf xonalari kompyuter bilan ta'minlanishi ham muhimdir [5].

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kun zamon talabi o'quvchilarga zamonoviy metodlardan, inovatsiyalarda foydalanib dars o'tishni ko'zda tutadi. Chunki hozir zamon rivojlangan, globalashuv asrida yashamoqdamiz. Internet, ijtimoiy tarmoqlardan o'quvchilar bimalol foydalanmoqdalar. Biz ularga kitobdagi ma'lumotlarni gapirib bersak ularga qiziq tuyulmaydi. Shuning uchun o'qituvchi doim izlanishda bo'lishi kerak. Zamonaviy yangi inovatsiyalar, metodlar o'ylab topib, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib, ulardan darslarda samarali foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi, darsda ko'zlangan maqsadga erishamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". –Toshkent: O'zbekiston, 2016. –B.27.
2. Haydarov Temur Jaxongir o'g'li. INNOVATION SCIENCE AND RESEARCH INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL (VOLUME 1 ISSUE 8) DECEMBER 2023 ISSN: 2992-8877 | SCIENCEJOURNAL.UZ 27. TARIX FANI



O‘QITISHDA METODLAR VA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH.

3. Султонова Н.А. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ В СЕМЬЕ // SCIENTIFIC PROGRESS 2021// 1 (6), 631-63

4. Hayitova Gulruh Jalolovna. “Yangi O‘zbekiston ustozlari” Respublika ilmiy-uslubiy jurnali №3 “TARIX DARSLARIDA ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH”.

5. Yulduz Aminjonova. Metodika va texnologiya bir-biridan qanday farqlanadi?”Ma’rifat gazetasi”. 2003-y.19-mart

6. K Hamidova:” Tarix o‘qitish metodikasi”. –Toshkent, 2015.